

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MUSTAFOYEV AZIMJON FARRUXOVICH

**NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM XIZMATLARI
BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Mustafoyev Azimjon Farruxovich

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari buxgalteriya hisobini
takomillashtirish.....3

Мустафоев Азимжон Фаррухович

Совершенствование учета образовательных услуг в негосударственных
образовательных организациях27

Mustafoyev Azimjon Farrukhovich

Improvement of accounting of educational services in non-state educational
organizations53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MUSTAFOYEV AZIMJON FARRUXOVICH

**NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM XIZMATLARI
BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Iqt4508 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boronov Bobur Farxodovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Aliqulov Abdimo'min Ismatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mavlanov Normo'min Normamatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.12.2024.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «25» 10 kuni soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (99866) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (118 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (99866) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «13» 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil «13» 10 da № 21-raqamli reestr bayonnomasi.)



M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

SH.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M.T.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda insonlarning ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabi tobora ortib, ularning ehtiyojlarini qondirishda nodavlat ta'lim tashkilotlarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro EdWeek Market Brief kompaniyasining ta'kidlashicha, «dunyo bo'ylab 6,9 milliarddan ortiq talaba xalqaro xususiy maktablarda tahsil olib, har yili o'qish uchun 60,9 milliard dollardan ko'proq pul to'laydilar. Bu besh yil avvalgidan 9 milliard dollarga ko'p demakdir»¹. Nodavlat ta'lim tashkilotlari sonining tobora ortib borishi sababli ushbu tashkilotlar faoliyatini modernizatsiyalash, raqamlashtirish, jahon standartlari talablari asosida ta'lim xizmatlarini tashkil etish, xarajatlarni samarali boshqarish orqali ta'lim xizmatlari tannarxini pasaytirishga erishish hamda ular hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari tannarxini xalqaro tajribalar asosida moliyaviy hisob va hisobotlarda aks ettirish barcha mamlakatlarda dolzarbdir.

Jahonda ta'lim xizmatlari hisobini takomillashtirishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelingan bo'lib, nodavlat ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobi, ularni bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratish orqali mazkur xarajatlarni ta'lim xizmatlari tannarxiga olib borishning tartib-qoidalari, nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish natijasida olingan daromad, foyda kabi moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirishga doir ma'lum natijalarga erishilgan. Biroq, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ta'lim xizmatlari hisobini yuritish, ta'lim xizmatlari tannarxiga oid tashqi va ichki axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondiruvchi axborotlarni hisobotlarda yoritish kabi masalalar o'z yechimini topmagan.

O'zbekistonda bugungi kunda 2000 dan ortiq nodavlat maktabgacha ta'lim va 455 ta umumta'lim tashkilotlari faoliyat ko'rsatib, 2023-yilda ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha o'sish sur'ati 123,1 foizni² tashkil qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida mamlakatda umumta'lim sohasini yanada rivojlantirish uchun nodavlat tashkilotlarini keng jalb qilish maqsadida «Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari sonini 1000 taga yetkazish, kelgusi besh yilda nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 1 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish»³ bo'yicha ustuvor vazifalar ishlab chiqilgan. Respublikamizda mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash bevosita nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatiga bog'liq bo'lib, ularning soni va ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish, modernizatsiyalash, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, xarajatlarni to'g'ri boshqarish va taqsimlash orqali ta'lim xizmatlari tannarxini pasaytirish,

¹ <https://marketbrief.edweek.org/education-market/international-private-schools-are-growing-and-diversifying-their-curriculum-offerings/2024/03>

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotnomasi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. 2023 yil 11 sentyabr. PF-158.

samarali boshqaruv qarorlarni qabul qilish imkoniyatini beruvchi hisobot shakllarini ishlab chiqishni zaruriyat qilib qo‘ymoqda. Bu esa, mazkur dolzarb masalalarga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son «Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-403-son «Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1028-son «Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, shuningdek mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalar ijrosini amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiyalik olimlardan R.Hermanson, H.Roger, B.Nidlz, X.Anderson, D.Kolduell, A.V.Ilina, N.N.Ilsheva, K.Druri, Ya.Sokolov, M.Vaxrushina, Yu.Zinoveva, T.Timofeeva va boshqa olimlar⁴ nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy va boshqaruv hisobining nazariy-uslubiy masalalarini tadqiq etganlar.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda mahsulot va xizmatlar hisobini takomillashtirishga bag‘ishlangan mamlakatimiz olimlari A.Aliqulov, B.Boronov, R.Dusmuratov, A.Ibragimov, A.Karimov, N.Karimov, M.Kalonov, S.Mehmonov, M.Pardayev, A.Pardayev, M.Po‘latov, S.Tashnazarov, K.Urazov, Z.Qurbanov,

⁴ Management Accounting. Study material prepared by ICWAI for J.A.O. (CIVIL) examination.; Hermanson, Edwards, and Ivancevich. Accounting Principles: Managerial Accounting. A Textbook Equity Open College Textbook. 2011, 944 pages.; Hermanson R., Roger H. Accounting Principles: A Business Perspective. First Global Text Edition, Volume 1. Financial Accounting. 1005p. 208-pages.; Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учёта. – Москва: Финансы и статистика, 1997. -496 с.; Ильина А.В., Ильшева Н.Н. Управленческий учет. Учебное пособие. -Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 180 с.; Друри К. Управленческий и производственный учёт. Вводный курс: учеб. для студентов вузов / Друри К. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. 735 с. – (Серия «Зарубежный учебник»). – Доп. Тит. л. англ.; Соколов Я.В. Управленческий учет: Учебное пособие / под ред. Соколова Я.В.— М.: Магистр, 2012. – 431 с. - (Бакалавриат). – ISBN 978-5-9776-0077-4.; Вахрушина М.А. Парадигма бухгалтерского учета и отчетности в условиях глобальной экономики: проблемы России и пути их решения. Международный бухгалтерский учет. 2014. № 25. С. 38-46.; Зиновьева Ю.С. Совершенствование системы бухгалтерского учета в негосударственных образовательных учреждениях в условиях реформирования системы образования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Ростов-на-Дону: 2007. 170-с.; Тимофеева Т.В. Бухгалтерский учет доходов и расходов негосударственных образовательных учреждений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва: 2009. 171-с.

B.Hasanovlar⁵ tomonidan bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning tadqiqot ishlarida ta'lim xizmatlarining buxgalteriya hisobi obyekti sifatidagi tavsifi va tasnifi, xarajatlarni hisoblash tartibi, ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari tannarxini hisobotda yoritish masalalari chuqur tadqiq etilmagan. Ushbu jihatlar mazkur mavzu doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga hamda uning maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining «Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari buxgalteriya hisobini takomillashtirishga oid ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

nodavlat ta'lim tashkilotlarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim xizmatlari hisobining ilmiy-nazariy masalalarini tadqiq qilish;

ilg'or tajribalarga muvofiq, nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisob siyosatini ishlab chiqish;

samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni buxgalteriya hisobining ajralmas obyekti sifatida tasniflash va tavsiflash;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan xarajatlar tarkibi va ular hisobini amaliy jihatdan tadqiq etish;

⁵ Aliqulov A.I. Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya. –T.: «Fan va texnologiya». -2011, 188 b., 16-bet; Boronov B.F. Yog'moy mahsulotlari hisobi metodologiyasini takomillashtirish. –T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2023, 244 b.; Dusruratov R.D., Tulayev U.I. Moliyaviy hisobot: nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari. -T.: «Extremum-Press», 2012, -144 b.; Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, audit va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish: Iqt. fan. dok. dis. ...avtoref. – Toshkent: 2002. – 42 b.; Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. Monografiya. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 152 b.; Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish va uning uslubiyotini takomillashtirish muammolari: Dis. avtoref. ... iqt. fan. d-ri. – T.: 2007.; Kalonov M.B. Korxonalarda daromadlar va xarajatlar hisobi uslubiyotini takomillashtirish. Monografiya. -T.: Iqtisod-moliya, 2019 yil. -254 bet; Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Dis...iqt.fan b d-ri. -T.: TMI, 2018.; Pardayev M.K., Xoliqulov A.N., Yahyoev T.I. Moliyaviy va iqtisodiy ma'lumotlar tahlili. O'quv qo'llanma. –Samarqand: «FAN BULOG'I» nashriyoti, SamISI, 2022. -146 b.; Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: «Iqtisod-Moliya», 2019 y.-538 b.; Po'latov M.E. Intellektual kapital hisobi va tahlili: nazariya va amaliyot masalalari. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2012. -166 b.; Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. - Publisher SIA OmniScriptum Publishing. GlobeEdit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050-1; Urazov K.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr. T.: «Fan va texnologiya», 2019, -540 bet.; Qurbonov Z.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining muammolari // «Raqamli iqtisodiyot sharoitida fiskal siyosatni takomillashtirish muammolari» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T.: FI., 2022. -665-b. 229-233-b.; Hasanov B.A., Xajimuratov N.Sh., Nurmanov U.A., Maxmudov A.N. Moliyaviy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: «Lesson Press», 2022. -253 b..

xalqaro standartlar asosida ta'lim xizmatlari tannarxini aniqlashda bevosita xarajatlarni hisoblashning uslubiy jihatlari va bilvosita xarajatlarning ta'lim xizmatlari tannarxiga taqsimlash bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarining tannarxini hisoblashning uslubiy tartibini takomillashtirish;

moliyaviy va boshqaruv axborot foydalanuvchilarining ta'lim xizmatlari tannarxi bo'yicha axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi hisobot shakllarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nodavlat maktabgacha ta'lim va umumta'lim tashkilotlarining ta'lim xizmatlari buxgalteriya hisobi va hisoboti olingan.

Tadqiqotning predmeti nodavlat maktabgacha ta'lim va umumta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, qiyosiy taqqoslash, induksiya, deduksiya, sintez, nazariy va amaliy o'rganish, statistik tahlil, kuzatuv va buxgalteriya hisobi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nodavlat ta'lim tashkilotlarining hisob siyosatiga 2010-“O'quv-tarbiya faoliyati bo'yicha xarajatlar” va 2020-“Ma'rifiy faoliyat bo'yicha xarajatlar” nomli schyotlarni kiritish asosida xarajatlarni asosiy faoliyat va ta'lim xizmati turlari bo'yicha alohida hisobda aks ettirish orqali xizmatlar tannarxiga doir axborotlar shaffofligini oshirish taklif etilgan;

ta'lim xizmatlari tannarxiga kiruvchi bevosita va bilvosita moddiy, mehnat, boshqa xarajatlar tarkibini alohida xarajatlar moddalari bo'yicha tasniflash orqali ma'rifiy faoliyatga kiruvchi xizmatlar tannarxini bevosita moddiy va mehnat xarajatlari asosida aniqlash tartibi takomillashtirilgan;

umumxizmat ko'rsatish xarajatlarini o'quv-tarbiya faoliyatiga kiruvchi umumta'lim, maktabgacha ta'lim va tarbiya, maktabga tayyorlash xizmatlari tannarxilariga taqsimlashning ta'lim va tarbiya oluvchilar soniga mutanosib usulini ishlab chiqish orqali ma'rifiy faoliyat rentabelligini oshirish asoslangan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida moddiy, mehnat va umumxizmat ko'rsatish xarajatlarining tarkibi va ta'lim xizmatlari tannarxiga ta'sirini ochib beruvchi maxsus hisob-kitob jadvallarini ishlab chiqish asosida “Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish natijalari bo'yicha yig'ma axborot” nomli ichki hisobotni tuzishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining moliyaviy va boshqaruv ahamiyati bo'yicha xususiyatlarini inobatga olgan holda «Nodavlat ta'lim tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda yuritish bo'yicha Hisob siyosati» taklif etilgan;

ta'lim xizmatlari tannarxini aniqlashga imkon beruvchi xarajatlarning buxgalteriya hisobi obyekti sifatidagi takomillashgan tasnifi ishlab chiqilgan;

nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqib umumxizmat ko'rsatish xo'jaligida amalga oshirilgan xarajatlarni oshxona, ta'minot, tibbiyot, nazorat bo'limlariga tasniflagan holda buxgalteriya hisobini yuritish asoslangan;

samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida ta'lim xizmatlarining sotish narxi, ta'lim va tarbiya oluvchilar soni, sof tushum, tannarx, yalpi foyda, ta'lim xizmatlari tannarxi rentabelligi ko'rsatkichlari bo'yicha axborotlarni yorituvchi yangi hisobot shakllari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuvlar, tartib-qoidalar, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi «Nodavlat ta'lim muassasalari» uyushmasiga a'zo bo'lgan va boshqa nodavlat ta'lim tashkilotlarining buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotlariga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari buxgalteriya hisobini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy tavsiyalardan nodavlat ta'lim tashkilotlarida buxgalteriya hisobining ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanib, ushbu ilmiy taklif va tavsiyalar OTMLlarda o'rganiladigan «Moliyaviy hisob», «Moliyaviy hisobot», «Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi» fanlarining mazmunini yanada boyitishda, fanlarga o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualarini takomillashtirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarini hisobga olish jarayonida qo'llaniladigan tartib-qoidalarini tizimlashtirish va ta'lim xizmatlari tannarxini asoslash hamda ularga oid axborotlarni moliyaviy va boshqaruv hisobotlarida real yoritishda yo'riqnoma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari buxgalteriya hisobini takomillashtirishga oid ishlab chiqilgan takliflar asosida:

nodavlat ta'lim tashkilotlarining hisob siyosatiga 2010-“O'quv-tarbiya faoliyati bo'yicha xarajatlar” va 2020-“Ma'rifiy faoliyat bo'yicha xarajatlar” nomli schyotlarni kiritish asosida xarajatlarni asosiy faoliyat va ta'lim xizmati turlari bo'yicha alohida hisobda aks ettirish orqali xizmatlar tannarxiga doir axborotlar shaffofligini oshirish bo'yicha taklifi «Nodavlat ta'lim muassasalari» uyushmasining yo'l xaritalari, nizomlari, buyruqlari va uslubiy tavsiyalariga kiritilgan («Nodavlat ta'lim muassasalari» uyushmasining 2025-yil 10-fevraldagi 3-son, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasining 2025-yil 4-martdagi 8-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklif sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga, ta'lim xizmatlarini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirishga, ta'lim xizmatlari tannarxini aniq hisoblashga hamda axborotlar ishonchligini ta'minlashga xizmat qilgan;

ta'lim xizmatlari tannarxiga kiruvchi bevosita va bilvosita moddiy, mehnat, boshqa xarajatlar tarkibini alohida xarajatlar moddalari bo'yicha tasniflash orqali ma'rifiy faoliyatga kiruvchi xizmatlar tannarxini bevosita moddiy va mehnat xarajatlari asosida aniqlash tartibi bo'yicha taklifi "Leader School" NTM va "Istiqbolli ta'lim" NTMlari tomonidan hisob siyosatiga kiritilgan («Nodavlat ta'lim muassasalari» uyushmasining 2025-yil 10-fevraldagi 3-son, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasining 2025-yil 4-martdagi 8-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi har bir bosqichida ta'lim xizmatlari tannarxini tezkor aniqlashga, boshqaruv xodimlarini aniq axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qilgan. Natijada, nodavlat ta'lim tashkilotlarining ma'rifiy faoliyat bo'yicha sotish rentabelligini o'tgan yilga nisbatan 1,5 foizga oshirishga erishilgan;

umumxizmat ko'rsatish xarajatlarini o'quv-tarbiya faoliyatiga kiruvchi umumta'lim, maktabgacha ta'lim va tarbiya, maktabga tayyorlash xizmatlari tannarxlariga taqsimlashning ta'lim va tarbiya oluvchilar soniga mutanosib usulini ishlab chiqish orqali ma'rifiy faoliyat rentabelligini oshirish bo'yicha taklifi «Nodavlat ta'lim muassasalari» uyushmasining yo'l xaritalari, nizomlari, buyruqlari va uslubiy tavsiyalariga kiritilgan («Nodavlat ta'lim muassasalari» uyushmasining 2025-yil 10-fevraldagi 3-son, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasining 2025-yil 4-martdagi 8-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida boshqaruv xodimlariga umumxizmat ko'rsatish xarajatlarining ta'lim xizmatlari tannarxi tarkibidagi ulushini tahlil qilish orqali tashkilotda xaridorgir narx siyosatini yuritish imkonini bergan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida moddiy, mehnat va umumxizmat ko'rsatish xarajatlarining tarkibi va ta'lim xizmatlari tannarxiga ta'sirini ochib beruvchi maxsus hisob-kitob jadvalarini ishlab chiqish asosida "Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish natijalari bo'yicha yig'ma axborot" nomli ichki hisobotni tuzish taklifi nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan hisob siyosatiga kiritilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 18-apreldagi 04-07-27-4265-son, «Nodavlat ta'lim muassasalari» uyushmasining 2025-yil 10-fevraldagi 3-son, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasining 2025-yil 4-martdagi 8-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi nodavlat ta'lim tashkilotlarining moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq real aks ettirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 8 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlari buxgalteriya hisobining ilmiy-nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida nodavlat ta’lim tashkilotlarining buxgalteriya hisobi sub’ektlari sifatidagi talqini va o‘ziga xos xususiyatlari, nodavlat ta’lim tashkilotlarida buxgalteriya hisobining ilmiy-nazariy asoslari: ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilgan xarajatlarning buxgalteriya hisobi obyekti sifatidagi tavsifi va tasnifi, nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlari buxgalteriya hisobini tashkiliy-uslubiy asoslari kabi masalalar tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda 2023-yil 1-mayda yangi tahrir ostida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir”⁶ deb keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasining farovonligini ta’minlash maqsadida qabul qilingan Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan bunday normalar shuni bildiradiki, mamlakatimizda ta’lim xizmatlari, jumladan nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish davlat tomonidan ustuvor vazifa hamda yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan.

Respublikamizda nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatlarini tartibga solish masalalari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida keltirilgan bo‘lib, ushbu hujjatda keltirilgan ta’rifga ko‘ra “Nodavlat ta’lim tashkiloti – davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs”⁷ hisoblanib, ushbu nodavlat ta’lim tashkilotlarining asosiy faoliyati ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘lib hisoblanadi. Demak, mazkur nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatlarini kengaytirish, Davlat tomonidan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish maqsadida mazkur xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bugungi milliy iqtisodiyotning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.


O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, nodavlat ta’lim tashkilotlari maktabgacha ta’lim va tarbiya (bundan oilaviy maktabgacha

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil 01 may.

⁷ O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, № O‘RQ-637-son.

ta'lim mustasno), umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim⁸. Mazkur ta'lim tashkilotlarining asosiy faoliyati aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish hisoblanib, ushbu xizmatlar hajmi mamlakat yalpi qo'shilgan qiymatida salmoqli hissani tashkil etadi.

Respublikamizda ta'lim tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Natijada, 2023-yilda ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha o'sish sur'ati 123,1 foizni⁹ tashkil qilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmining yillar kesimidagi o'sish dinamikasini quyidagi rasm orqali ko'rish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Respublikamizda 2014-2023 yillarda ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda¹⁰

Mazkur rasmda keltirilgan statistik ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda ta'lim tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda va bunday natijalarga erishishda nodavlat ta'lim tashkilotlarining rolini ham alohida qayd etmoq lozim.

Respublikamiz milliy iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlar natijasida nodavlat ta'lim tashkilotlari soni oshib bormoqda. Ushbu ta'lim tashkilotlari sonining yillar kesimidagi ulushini quyidagi jadval ma'lumotlari orqali tahlil qilib chiqishni lozim, deb topdik (1-jadval).

Xorijiy mamlakatlarda ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jahonning rivojlangan mamlakatlarida ham nodavlat ta'lim tashkilotlari soni oxirgi yillarda tobora ortib bormoqda. Jumladan, Rossiya mamlakatida xususiy maktablarga bo'lgan talab uch marotaba oshgan bo'lib, nodavlat ta'lim tashkilotlari soni 37,3 foiz, ya'ni 10,2 mingtaga oshib, davlat ta'lim tashkilotlari soni esa, 7,3 foiz, ya'ni 182,4 mingtaga kamaygan¹¹. 2023-yilda ushbu

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, № O'RQ-637-son.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹¹ https://octagon.media/istorii/shkola_stanovitsya_chastnym_delom.html

nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya oluvchilar soni 206 ming¹² nafarga yetgan.

1-jadval.

2018-2023 yillarda nodavlat ta'lim tashkilotlari soni¹³

№	Nodavlat ta'lim tashkilotlari turlari	Nodavlat ta'lim tashkilotlari soni					
		2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
1.	Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari	754	1105	1670	1549	1826	2031
2.	Nodavlat umumta'lim tashkilotlari	58	91	102	135	194	293
3.	Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari	1	4	5	17	42	90

Mazkur tadqiqot ishida nodavlat ta'lim tashkilotlarining buxgalteriya hisobi sub'ektlari sifatidagi xususiyatlarini o'zida qamrab oluvchi, shuningdek ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi: "Nodavlat ta'lim tashkilotlari – bu davlat ta'lim standartlari va talablari bo'yicha hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartib-qoidalariga to'liq amal qilgan holda ta'lim xizmatlari faoliyatini pullik asosda ko'rsatish orqali foyda olish maqsadida tashkil etilgan yuridik shaxs".


"Ta'lim xizmatlari deganda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladigan o'quv-tarbiya faoliyati hamda davlat ta'lim standartlari bilan qamrab olinmaydigan ma'rifiy va boshqa faoliyatlar natijasi tushuniladi".

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat ta'lim tashkilotlari bugungi kunda bir vaqtning o'zida bir-biriga yaqin bo'lgan bir necha turdagi ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha asosiy faoliyatlarini amalga oshirib kelmoqda. Misol, umumta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkiloti o'z faoliyatlarini kengaytirishi hamda modernizatsiyalashi natijasida maktabgacha ta'lim xizmatlari yoki ushbu ta'limdan keyingi maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bilan ham shug'ullanib kelmoqda. Shuningdek, nodavlat ta'lim tashkilotlari asosiy faoliyati hisoblangan ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan bir qatorda yana boshqa faoliyatlar natijasida ham daromad olmoqda. Misol, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayonlari yakunlangandan keyin yoki bir vaqtning o'zida tashkilotning sport va ma'naviyat zallaridan foydalanish orqali ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish xizmatlarini ko'rsatishi hamda ushbu faoliyatlar natijasida qo'shimcha daromad olishi ham mumkin. Qolaversa, o'quvchilarning uy vazifalarini bajarishlari, fanlarni qayta o'zlashtirishlari yoki yana boshqa maqsadlarda turli yo'nalish va fanlar bo'yicha ta'lim, sport va ma'naviy-ma'rifiy to'garaklarni tashkil qilishi mumkin.

¹² <https://startoria.ru/blog/chastnyj-sektor-pochemu-rastet-spros-na-obrazovanie-v-negosudarstvennyh-shkolah/>

¹³ O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Yuqorida erishilgan natijalar asosida aytish mumkinki, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini guruhlarga ajratgan holda buxgalteriya hisobini yuritish maqsadga muvofiq. Ushbu nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyati o'z ichiga o'quv-tarbiya faoliyati, ma'rifiy faoliyat, asosiy bo'lmagan faoliyat va boshqa faoliyat turlarini qamrab oladi. Biz tomonimizdan tavsiya etilgan shaklda, ya'ni nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini to'rtta guruhga ajratish ushbu tarmoq tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuningdek, ushbu faoliyatlar tasnifidan kelib chiqqan holda nodavlat ta'lim tashkilotlarining daromad va xarajatlari tarkibi belgilab olindi va quyidagicha tasniflandi (2-rasm):



2-rasm. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida daromad va xarajatlar tarkibi¹⁴

Ushbu rasmdan ko'rish mumkinki, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning faoliyat turlariga mos ravishda daromad va xarajatlar guruhlarga ajratildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish**» deb nomlanib, unda nodavlat ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan xarajatlar tarkibi va buxgalteriya hisobining amaliy jihatlari, ta'lim xizmatlari tannarxini aniqlashda bevosita xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlarida bilvosita xarajatlarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish kabi masalalar tadqiq etilgan.

Bugungi kunda nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan barcha xarajatlar tashkilotlar tomonidan umumiy holda buxgalteriya hisobida aks ettirilgan bo'lib, mazkur ilmiy tadqiqot ishimizda tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni alohida guruhlarga ajratgan holda tashkilotlarning faoliyat turlari kesimida buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi (2-jadval):

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

**“Tasdiq A’lo O’quv” nodavlat ta’lim tashkilotida amalga oshirilgan
xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishga oid tavsiyalar¹⁵**

Xarajatlar guruhi	Umumta’lim xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha xarajatlar tarkibi	Maktabgacha ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha xarajatlar tarkibi	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha xarajatlar tarkibi
Bevosita moddiy xarajatlar	O’quv qurollari	-	O’quv qurollari
	O’quv buyumlari	O’quv buyumlari	O’quv buyumlari
	Boshqa bevosita sarflanadigan materiallar	Boshqa bevosita sarflanadigan materiallar	Boshqa bevosita sarflanadigan materiallar
Bilvosita moddiy xarajatlar	Oziq-ovqat mahsulotlari	Oziq-ovqat mahsulotlari	Oziq-ovqat mahsulotlari
	Nooziq-ovqat mahsulotlari	Nooziq-ovqat mahsulotlari	Nooziq-ovqat mahsulotlari
	Dori vositalari	Dori-darmonlar	Dori-darmonlar
	Tibbiy buyumlar	Tibbiy buyumlar	Tibbiy buyumlar
	Yoqilg’i	Yoqilg’i	Yoqilg’i
	Boshqa bilvosita sarflanadigan materiallar	Boshqa bilvosita sarflanadigan materiallar	Boshqa bilvosita sarflanadigan materiallar
Bevosita mehnat haqi bo’yicha xarajatlar	Zavuchlar mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	-	-
	O’qituvchi va murabbiylar mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	O’qituvchi va murabbiylar mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	O’qituvchi va murabbiylar mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq
	Tarbiyachilar mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Tarbiyachilar mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Tarbiyachilar mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq
	-	Enagalar mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	-
Bilvosita mehnat haqi bo’yicha xarajatlar	Oshxona xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Oshxona xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Oshxona xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq
	Ta’minot bo’limi xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Ta’minot bo’limi xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Ta’minot bo’limi xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq
	Tibbiyot bo’limi xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Tibbiyot bo’limi xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Tibbiyot bo’limi xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq
	Nazorat bo’limi xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Nazorat bo’limi xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq	Nazorat bo’limi xodimlari mehnat haqi va ular bo’yicha ijtimoiy soliq
Boshqa bevosita xarajatlar	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	Asosiy vositalar amortizatsiyasi
	Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
Boshqa bilvosita xarajatlar	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	Asosiy vositalar amortizatsiyasi
	Ijara xarajatlari	Ijara xarajatlari	Ijara xarajatlari
	Elektro-energiya	Elektro-energiya	Elektro-energiya
	Suv va oqova	Suv va oqova	Suv va oqova
	Tabiiy gaz	Tabiiy gaz	Tabiiy gaz
	Chiqindilarni tashish	Chiqindilarni tashish	Chiqindilarni tashish

¹⁵ Tashkilot ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Biz tomonimizdan tasniflangan xarajatlar tarkibi nodavlat ta'lim tashkilotlari buxgalteriya hisobini yuritishda muhim hisoblanadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarining har bir faoliyat turlari kesimida ta'lim xizmatlari tannarxini hisoblash zaruriyatidan kelib chiqqan holda xarajatlarni quyidagi ko'rinishda buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz (3-jadval):

3-jadval.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bo'yicha xarajatlarni buxgalteriya hisobi schyotlar rejasiga aks ettirish bo'yicha tavsiyalar¹⁶

Xarajatlar guruhi bo'yicha		Xarajatlar tarkibi bo'yicha	
2010	O'quv-tarbiya faoliyati bo'yicha xarajatlar	2011	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajatlar
		2012	Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajatlar
		2013	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajatlar
2020	Ma'rifiy faoliyat bo'yicha xarajatlar	2021	Maktab dasturidan tashqari ko'rsatilgan ta'lim (to'garaklar) xizmatlari bo'yicha xarajatlar
		2022	Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish xizmatlari bo'yicha xarajatlar
		2023	Boshqa faoliyat bo'yicha xarajatlar

Biz tomonimizdan tavsiya etilgan ushbu schyotlar tizimi orqali nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni faoliyatlar kesimida buxgalteriya hisobida aks ettirish o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Umumxizmat ko'rsatish xarajatlari tarkibida moddiy xarajatlar ulushi boshqa xarajat turlariga nisbatan ko'proq hissani tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich oshxona bo'limida foydalaniladigan oziq va nooziq-ovqat mahsulotlari hisobidan yuzaga kelgan bo'lib, ushbu mahsulotlar sarfi jami umumxizmat ko'rsatish xarajatlarning 62 %ni tashkil etmoqda. Bu shuni anglatadiki, nodavlat ta'lim tashkilotlarida oshxona bo'limi bo'yicha xarajatlar ta'lim xizmatlari tannarxiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Quyidagi jadvallarda nodavlat ta'lim tashkilotlari xarajatlari tarkibida bilvosita xarajatlar va ularning tarkibidagi moddiy xarajatlar ulushi jami xarajatlarga nisbatan salmoqli hissani tashkil etishi va ularning buxgalteriya hisobining yuritilishi aniq bir tarmoq tashkiloti misolida ko'rsatib o'tilgan (4-jadval):

¹⁶ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

4-jadval.

**“Istiqbolli ta’lim” nodavlat ta’lim tashkilotida umumxizmat ko’rsatish
xo’jaligi xarajatlari tarkibi tahlili¹⁷**

2024 yil sentyabr oyida, ming so‘mda

Xarajatlar tarkibi	Umumxizmat ko’rsatish xo’jaligi, shundan:	Oshxona bo’limi	%	Ta’minot bo’limi	%	Tibbiyot bo’limi	%	Nazorat bo’limi	%
1. Moddiy xarajatlar	342 378	320 531	94	6 334	2	14 673	4	840	0
2. Mehnat haqi xarajatlari	109 850	77 482	71	13 776	13	10 752	9	7 840	7
3. Boshqa xarajatlar	64 050	52 760	82	3 680	6	860	1	6 750	11
3.1. Asosiy vositalar amortizatsiyasi	16 210	4 920	30	3 680	23	860	5	6 750	42
3.2. Kommunal to’lovlari	47 840	47 840	100	0	0	0	0	0	0
Jami umumxizmat ko’rsatish xarajatlari	516 278	450 773	87	23 790	5	26 285	5	14 530	3

Nodavlat ta’lim tashkilotida umumxizmat ko’rsatish xarajatlarning ta’lim xizmatlari tannarxi tarkibidagi ulushini aniqlaymiz (5-jadval):

5-jadval.

**“Istiqbolli ta’lim” nodavlat ta’lim tashkilotida ta’lim xizmatlari tannarxi
tarkibi tahlili¹⁸**

2024 yil sentyabr oyida, ming so‘mda

№	Xarajatlar tarkibi	To’g’ridan-to’g’ri xarajatlar	%	Umumxizmat ko’rsatish xarajatlari	%	Ta’lim xizmatlari tannarxi
1	Moddiy xarajatlar	12 802	4	342 378	96	355 180
2	Mehnat haqi xarajatlari	468 966	81	109 850	19	578 816
3	Boshqa xarajatlar	143 380	69	64 050	31	207 430
	Jami amalga oshirilgan xarajatlar	625 148	55	516 278	45	1 141 426

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «Ta’lim xizmatlari tannarxi va ularni sotishdan olingan daromadlar hisobi hamda buxgalteriya hisobotini takomillashtirish» deb nomlanib, unda nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim

¹⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

¹⁸ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

xizmatlari tannarxini hisoblashning uslubiy tartibini takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq daromadlar hisobi va hisoboti, nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlariga oid buxgalteriya hisobotining axborot berish imkoniyatlarini oshirish yo'llari kabi masalalar tadqiq qilingan.

Umumxizmat ko'rsatish xarajatlarini "ta'lim va tarbiya oluvchilar soniga mutanosib usuli" orqali ta'lim xizmatlari tannarxiga taqsimlash quyidagicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz (3-rasm):



3-rasm. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumxizmat ko'rsatish xarajatlarini ta'lim xizmatlari tannarxiga taqsimlash usuli¹⁹

Mazkur xarajatlarini ta'lim xizmatlarining tannarxiga olib borishning ushbu usulini nodavlat ta'lim tashkilotlari misollari yordamida tadqiq etamiz (6-jadval).

6-jadval

“Istiqbolli ta'lim” nodavlat ta'lim tashkilotida umumxizmat ko'rsatish xarajatlarini “ta'lim va tarbiya oluvchilar soniga mutanosib usuli”ni qo'llash orqali ta'lim xizmatlari tannarxiga taqsimlash²⁰

2024 yil sentyabr oyida, ming so'mda

Ta'lim faoliyati turlari	Ta'lim va tarbiya oluvchilar soni	Umumxizmat ko'rsatish xarajatlarini taqsimlash foizi	Umumxizmat ko'rsatish xarajatlari ulushi
1	2	3	4
Umumta'lim xizmati	520	73,8 %	381 013
Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmati	110	15,6 %	80 539
Maktabga tayyorlash xizmati	75	10,6 %	54 726
Jami:	705	100 %	516 278

Izoh: 3-ustun = 2-ustun / 705; 4-ustun = 3-ustun x 516278.

¹⁹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

²⁰ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, biz tomonimizdan tavsiya etilgan tartibga muvofiq, nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari tannarxini quyidagicha hisob-kitob qilamiz (7-jadval):

7-jadval.

“Istiqbolli ta'lim” nodavlat ta'lim tashkilotida ta'lim xizmatlari tannarxi hisob-kitobi²¹

2024 yil sentyabr oyida, ming so'mda


Ta'lim faoliyati turlari	To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar	Umumxizmat ko'rsatish xarajatlari	Ta'lim xizmatlari tannarxi
1	2	3	4
<i>O'quv-tarbiya faoliyati turlari bo'yicha</i>			
Umumta'lim xizmati	426 925	381 013	807 938
Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmati	128 897	80 539	209 436
Maktabga tayyorlash xizmati	48 747	54 726	103 473
O'quv-tarbiya faoliyati turlari bo'yicha jami:	604 569	516 278	1 120 847
<i>Ma'rifiy faoliyat turlari bo'yicha</i>			
Maktab dasturidan tashqari ko'rsatilgan ta'lim (to'garaklar) xizmatlari	14 283	0	14 283
Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish xizmatlari	6 296	0	6 296
Ma'rifiy faoliyat turlari bo'yicha jami:	20 579	0	20 579
Jami:	625 148	516 278	1 141 426

Ushbu hisob-kitoblardan ko'rish mumkinki, nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari tannarxi ham o'quv-tarbiya faoliyati turlari bo'yicha va ham ma'rifiy faoliyat turlari bo'yicha aniqlanadi. Biroq, nodavlat ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan umumxizmat ko'rsatish xarajatlari, ushbu misoldan ko'rish mumkinki, faqatgina o'quv-tarbiya faoliyati turlari bo'yicha ta'lim xizmatlari tannarxiga ta'sir qilib, ularning tannarxiga qo'shiladi. Ma'rifiy faoliyat turlari bo'yicha ta'lim xizmatlari tannarxi esa, yuqorida ta'kidlanganidek, faqatgina bevosita xarajatlardan tashkil topadi.

Yuqoridagi hisob-kitoblar natijasidan kelib chiqqan holda ta'lim xizmatlari tannarxini hisoblashning yangi modeli ishlab chiqildi (4-rasm).

Amaldagi 21-son BHMS tarkibidagi schyotlar rejasida bilvosita xarajatlar hisobini yuritishga mo'ljallangan 2510-“Umumishlab chiqarish xarajatlari” schyoti keltirilgan bo'lib, mazkur schyot nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumxizmat ko'rsatish xo'jaligi bo'yicha xarajatlarni ularning tarkibiy qismlari bo'yicha alohida buxgalteriya hisobini yuritish imkoniyatini bermaydi.

²¹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.



4-rasm. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari tannarxini aniqlashning bosqichli usuli²²

